


DAVLAT VA HUQUQ

ASOSLARI

Darslik

8



DAVLAT VA HUQUQ ASOSLARI

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining
8-sinfi uchun darslik

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab
ta'limi vazirligi tomonidan nashrga tavsiya etilgan

Yangi nashr

8



Toshkent — 2024

MUNDARIJA

Kirish 5

I BOB



SHAXS, JAMIYAT VA DAVLAT

1–2-dars. Shaxs 7
3-dars. Jamiyat 12
4–5-dars. Davlat..... 16
6-dars. Davlat funksiyasi..... 21
7–8-dars. Davlat shakllari 24
9-dars. Ijodiy faoliyat 31

II BOB



HUQUQ

10-dars. Axloq va huquq 35
11–12-dars. Huquq manbalari..... 40
13-dars. Huquq normasi 46
14-dars. Huquq tarmoqlari (sohalari) 51
15-dars. Huquqiy munosabatlar 56
16-dars. Ijodiy faoliyat 62

III BOB



HUQUQBUZARLIK VA YURIDIK JAVOBGARLIK

17–18-dars. Huquqiy xulq-atvor 65
19–20-dars. Huquqbuzarlik 69
21–22-dars. Yuridik javobgarlik 76
23–24-dars. Yuridik javobgarlikning oqibatlarlari 81
25–26-dars. Ijodiy faoliyat 87

IV BOB



VOYAGA YETMAGANLARNING HUQUQ VA BURCHLARI

27-dars. Fuqarolik qonunchiligida voyaga yetmaganlarning huquqlari..... 91
28-dars. Jinoyat qonunchiligida voyaga yetmaganlarning huquq va majburiyatlari..... 95
29–30-dars. O‘zbekiston Respublikasida voyaga yetmaganlarning javobgarligi 100
31–32-dars. Oila qonunchiligida voyaga yetmaganlarning huquq va majburiyatlari 111
33-dars. Mehnat qonunchiligida voyaga yetmaganlarning huquqlari..... 116
34-dars. Ijodiy faoliyat..... 120
Ayrim yuridik atamalarning izohli lug‘ati 122



QADRLI O'QUVCHI!

Bugun yurtimizda barcha sohalarda, xususan, ijtimoiy-iqtisodiy hamda siyosiy hayotda olib borilayotgan keng ko'lamlı islohotlarning guvohi bo'lyapsiz. Ayni paytda dunyoda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning muttasil o'zgarib borishi hamda integratsiyalashuvi, tibbiyot va raqamli texnologiyalarning jadal rivoji barcha fanlar uchun yuksak mas'uliyat yuklaydi. Jumladan, huquqshunoslik sohasi ham bundan mustasno emas.

Insoniyat hamisha o'z huquq va erkinliklarini tizimli hamda samarali himoya qilishga ehtiyoj sezgan. Demak, mazkur huquq va erkinliklarni yetarli darajada himoya qila olish madaniyatini shakllantirish davlat va huquq asoslari fani zimmasiga tushishi tabiiy hol. Qo'lingizdagi darslik sizga huquqshunoslikka oid dastlabki bilimlarni berishga xizmat qiladi. Ya'ni davlat va huquq asoslari fani siz uchun huquqshunoslikning nihoyatda boy, serqirra, shu bilan birga, murakkab, sirli olamiga kirishning debochasi bo'ladi. Negaki huquqiy tafakkur, siyosiy va huquqiy dunyoqarash, ong hamda huquqiy madaniyatni shakllantirish, jamiyatdagi davlat-huquqiy jarayonlar xususida tizimli bilimlar hosil qilish bugungi kunda zamonaviy fikrlaydigan, o'z vatani taqdiriga befarq bo'lmaydigan yosh avlodni tarbiyalash uchun muhimdir.

Mazkur darslik yordamida siz fanning maqsad va vazifalari, jamiyat va davlat tushunchalari, davlatning shakllari hamda funksiyalari haqida tasavvur hosil qilasiz. Bundan tashqari, darslikda axloq va huquqning umumiy va farqli jihatlari, huquqiy ong va huquqiy madaniyat, huquq shakllari (manbalari), huquq normasi, huquqiy munosabatlarga alohida e'tibor qaratilgan.

Bugungi kun uchun global ahamiyat kasb etadigan dolzarb mavzular, jumladan, voyaga yetmaganlarning ma'muriy huquqbuzarligi va javobgarligi, intizomiy huquqbuzarligi va javobgarligi, fuqaroviy huquqbuzarligi va javobgarligi, jinoyati va jinoiy javobgarligi, shu bilan birga, xalqaro huquq normalarida voyaga yetmaganlarning huquqlari masalalarining eng muhim normalari, sizning yoshingizni hisobga olib, matn, rasm va boshqa zamonaviy pedagogik texnologiyalar ko'magida bayon etilgan. Kerakli o'rinlarda mualliflar jamoasi tomonidan milliy qomusimiz va boshqa shu sohaga aloqador normativ-huquqiy hujjatlarga murojaat qilingan.

Biz — mualliflar jamoasi o'ylaymizki, siz mazkur darslikni diqqat va maroq bilan o'qib, tegishli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lasiz.

Mualliflar jamoasi

KIRISH

*Ta'lim faqat so'z va o'rgatish bilan bo'ladi.
Tarbiya esa amaliy ish, tajriba bilan bo'ladi.*

Umar Hayyom

Davlat va huquq jamiyat hayotining odamlar, tashkilotlar va ijtimoiy institutlar o'rtasidagi munosabatlarini tartibga soluvchi muhim tarkibiy qismidir. Davlatning huquqiy tizimi va tuzilishi asoslarini tushunish fuqarolarga o'z huquq va majburiyatlarini anglashga, shuningdek, mamlakat hayotida faol ishtirok etishga yordam beradi. Davlat va huquq asoslari fanida siz shaxs, jamiyat va davlatning o'zaro munosabatlari, huquqning asosiy tushunchalari va tamoyillari, davlatning tuzilishi, inson va fuqarolarning huquqlari hamda O'zbekiston Respublikasining huquqiy tizimi qanday faoliyat ko'rsatishi bilan tanishasiz.

Yuqoridagi bilimlarni o'rganish natijasida sizda nafaqat huquqiy bilim va huquqiy madaniyat, balki qonunga va boshqa odamlarning huquqlariga hurmat, o'z burch va majburiyatlaringizni anglash ko'nikmasi shakllanadi. Bu esa uyg'un va barqaror jamiyatning asosidir.

Davlat va huquq asoslari fanini o'rganishda sizga tarix, tarbiya, ona tili va adabiyot, iqtisodiy bilim asoslari, geografiya, biologiya hamda matematika fanlari yaqindan yordam beradi.

Davlat va huquq asoslari fanini o'rganish jarayonida sizda quyidagilar shakllanadi:





Respublika
Ta'lim Markazi



I BOB

SHAXS, JAMIYAT VA DAVLAT

1–2-DARS. SHAXS

*Odamiy ersang, demagil odami,
Onikim, yo'q xalq g'amidin g'ami.*

Alisher Navoiy



Faollashtiruvchi savollar



1. Rasmlarda tasvirlangan odamlar jismoniy, moddiy, aqliy, ma'naviy jihatlari bilan bir-biridan qanchalik farq qiladi deb o'ylaysiz?

2. Sizning fikringizcha, rasmlardagi odamlarning qanday umumiy jihatlari bor?

3. "Odam", "inson" va "shaxs" tushunchalari bir-biridan o'zaro farq qiladimi?

4. Shaxs jamiyatning to'laqonli a'zosi bo'lishi uchun qanday fazilatlarga ega bo'lishi lozim?

5. Inson huquqlari hammaga tug'ilganidan boshlab berilishini asoslang.

6. Har qanday inson uchun eng qadri bo'lgan narsalarni sanab bering.

7. Alohida toifadagi insonlar uchun qadri bo'lgan, lekin boshqalar uchun uncha ahamiyatli hisoblanmaydigan narsalarga misol keltiring.

8. Milliy va umuminsoniy qadriyatlarining o'xshash jihatlari misollar yordamida aytib bering. Mazkur qadriyatlarining inson uchun ahamiyati yuqori bo'lishi bu inson haqida qanday tasavvur uyg'otadi?



Fikrimizni tasdiqlaymiz

"Odam" tushunchasi biologik tushuncha bo'lib, unga jonli tabiatning bir elementi sifatida qaraladi. "Inson" tushunchasi esa ijtimoiy tushuncha bo'lib, undan kundalik so'zlashuvda keng foydalaniladi. Shuningdek, o'zaro suhbatlarda "kishi", "kimsa" so'zlarini ham qo'llab turamiz. Biroq huquqshunoslik fanida hamda yuridik adabiyotlarda "odam", "inson", "kishi" yoki "kimsa" so'zlaridan emas, balki aynan "shaxs" tushunchasidan foydalaniladi.

"**Shaxs**" tushunchasi "inson" tushunchasining yuksak ko'rinishi, oliy maqomidir. Shu bilan birga, "odam" yoki "inson" tushunchalariga huquqiy munosabatlarning ishtirokchisi sifatida qaralmaydi. Ular shaxs maqomidan tashqari holatda huquqiy munosabatlarning to'la ishtirokchisi bo'la olmaydi.



Yodda tuting

Shaxs — ongli ravishda o'z faoliyatini boshqarish imkoniyatiga ega bo'lgan, huquqiy munosabat ishtirokchisi sifatida muayyan huquq va majburiyatlarga ega inson.

INSON

Umumijtimoiy tushuncha bo'lib, muayyan jamiyatda insoniy fazilatlariga ega ekanlikni ifoda etadi.



ODAM



Biologik jihatdan fikrlash, so'zlash qobiliyatiga ega bo'lgan, shu tufayli jonli tabiatning boshqa hamma jonzorlardan ustun turuvchi bir qismi.

SHAXS

Huquqiy munosabatlarning alohida ishtirokchisi bo'lib, inson tushunchasining yuksak ko'rinishidir.



Hamkorlikda bajaramiz

Xo'sh, inson qanday qilib jamiyatga hissa qo'shadigan shaxsqa aylanadi? Qanday insonni biz buyuk shaxs deb atashimiz mumkin?

Shaxs ham, albatta, odam, inson, individ. Lekin unda tabiiy xususiyatlar, ehtiyojlar, his-hayajon, tuyg'ulardan tashqari, bir qadar ahamiyatliroq bo'lgan jihatlar ham mavjud. Masalan, shaxs uchun qator qadriyatlar muhim. Bu qadriyatlarga misol qilib o'z uyi — oilasi, mamlakati — vatani, mahallasi — qo'ni-qo'shnisi, o'quv dargohi — sinfdoshlari yoki kursdoshlari, ishxonasi — hamkasblari kabilarni keltirish mumkin. Bu qadriyatlariga erishish, ularni saqlash va e'zozlash uning hayotining maqsadi, mazmuni bo'lib xizmat qiladi. Shaxs faqat o'z-o'zi bilan ovora emas. U atrofdagilar, hayot, mahalla, mamlakat, vatan haqida doimo o'ylaydi, qayg'uradi, g'amxo'rlik qiladi. Insonning shaxs sifatida shakllanishida oila, maktab, qo'ni-qo'shni, mahalla va do'stlarning ta'siri katta.

Biz Abu Nasr Forobiy, Burhoniddin Marg'inoniy, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Alisher Navoiy kabi ajdodlarimizni tilga olganimizda ularni buyuk shaxslar deb ulug'lashimiz ham shaxs tushunchasiga e'tibor qaratishni talab etadi.




“Har bir inson tabiatan shunday tuzilganki, u yashash va oliy darajadagi yetuklikka erishmoq uchun ko'p narsalarga muhtoj bo'ladi, u bir o'zi bunday narsalarni qo'lga kirita olmaydi, ularga ega bo'lish uchun insonlar jamoasiga ehtiyoj tug'iladi...”

Abu Nasr Forobiy, “Fozil odamlar shahri”

Alisher Navoiy 1464–1469-yillarda Samarqandda bo'lgan paytlarida, bir necha yil mashhur faqih (huquqshunos) Xoja Fazlulloh Abul-lays huzurida fiqh (huquq) ilmidan dars olgan.

Bu haqda shoir “Majolis un-nafois” asarida shunday yozadi: “Faqir ikki yil alarning qoshida saboq o'qub erdim, ancha iltifotlari bor erdikim, “farzand” der erdilar”.



Burhoniddin Marg'inoniyning “Kitob al-Hidoya” (qisqacha nomi “Hidoya” — “To'g'ri yo'l”) kitobida oilaviy munosabatlarga oid, shuningdek, mulkchilik, savdo-sotiq, jinoyat va jazo, insonning burch va mas'uliyatlariga taalluqli juda ko'p murakkab muammolar islomiy huquq nuqtayi nazaridan hal etib berilgan. Bu kitob fiqh ilmi bo'yicha eng aniq, izchil, mukammal asar bo'lib, undan bugungi kunda ham islom huquqshunosligi bo'yicha nufuzli huquqiy manba — asosiy qo'llanma sifatida foydalaniladi.



Fikrimizni tasdiqlaymiz

Shaxsning jamiyatdagi o'rni

Shaxsni jamiyatdan, jamiyatni shaxsdan ajratib bo'lmaydi. Shaxs boshqalar bilan turli munosabatlarga kirishmasdan jamiyatda faoliyat olib bora olmaydi. Jamiyat va shaxs o'zaro ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy, siyosiy va huquqiy munosabatlarga kirishishi mumkin.

Ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar



Mehnat munosabatlari.
Mulkiy munosabatlar v.b.

Ma'naviy munosabatlar



Bilim olishga oid munosabatlar.
Tarixiy meros, ilmiy va texnik yutuqlardan foydalanish munosabatlari v.b.

Siyosiy munosabatlar



Davlat organlariga murojaat qilish bilan bog'liq munosabatlar. Turli jamoat birlashmalari bilan bog'liq munosabatlar v.b.

Huquqiy munosabatlar



Shartnomaviy munosabatlar.

vab-saytimiz: Zokirjon.com

Zokirjon.com vab-sayti orqali o'zingiz uchun kerakli ma'lumotlarni yuklab oling.

Zokirjon Admin bilan

90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga telegram orqali bog'lanishingiz yoki nza456, nza445 izlab telegramdan yozishingiz so'raladi.

Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida javob beriladi.

8-sinf huquq darsligini to'liq holda olish uchun telegramdan yozing.



Telegram kanalimiz:

@Maktablar_uchun_hujjatlar

To'lov uchun: **HUMO 9860230104973329**

Plastik egasi Nabiyev Zokirjon



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.
To'liq holda olganingizdan so'ng:
Faqat o'zingiz uchun foydalaning.
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.
Internet orqali vab-saytlarga joylamang.

Kanal va gruppalariga tarqatmang.

OMONATGA

HIYONAT QILMANG.